

“Izlanish samaralari” xalqaro ilmiy anjumani o’tkazildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek til, adabiyoti va folklori institutida Yosh olimlar kengashi tomonidan “Izlanish samaralari” mavzusida xalqaro ilmiy anjumani o’tkazildi. Unda Institut xodimlari, oliy o’quv yurtlaridan doktorantlar va tadqiqotchilar, shuningdek, Ozarbayjon Respublikasi Fanlar akademiyasi vakillari va soha mutaxassis olimlari ishtirok etdi.



Anjumanni linstitut direktori professor N.M.Mahmudov kirish so’zi bilan ochib berdi va anjuman ishiga muvaffaqiyat tiladi.

Anjumanga taqdim etilgan ma’ruzalarining mavzulari rang-barang bo’lib, ularda o’zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi, folklorshunosligi, adabiyot nazariyasi va adabiy aloqalar bo’yicha turli mavzulardagi maqolalar va ma’ruzalar muhokama qilindi. Chiqishlardan keyin tinglovchilar o’zlarini qiziqtirgan savollar bilan ma’ruzachilarga murojaat qildilar va o’zaro fikr almashdilar.